

Lola SHASAI DOVA,

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti v.b. dotsent, (Phd)

E-mail: L_shosaidova@gmail.com

Tel: +99888 131 10 28

O'zDJTU Pedagogika fanlari doktori, dotsent Kushieva N.X. taqrizi asosida

XITOIY TILI TA'LIMIDA TALABALAR OG'ZAKI NUTQIDA UCHRAYDIGAN IJTIMOYIY-MADANIY MAZMUNDAGI XATOLAR TAHLILI

Annotasiya

Mazkur maqola o'zbek va Xitoy tillarining o'ziga xosligi, farqli tomonlari, talabalarining og'zaki nutqida uchraydigan ijtimoiy-madaniy mazmundagi xatolar tahliliga qaratiladi. Error analysis metodi orqali Xitoy tili ta'limida talabalar og'zaki nutqida uchraydigan lingvokulturologik mazmunga xos tipik xatolarni aniqlash asosida interferentsion tasnif shakllantirildi. Asosiy e'tibor ona tili va o'rganilayotgan til o'rtasidagi tafovutda interferentsiyaning o'z salmoqli ekanligiga qaratildi.

Kalit so'zlar: o'zbek va xitoy tillari, og'zaki nutq, xatolarni tahlil qilish (error analysis) metodi, ijtimoiy-madaniy mazmundagi xatolar.

ANALYSIS OF ERRORS IN SOCIO-CULTURAL CONTENT FOUND IN STUDENT ORAL SPEECH IN CHINESE LANGUAGE EDUCATION

Annotation

This article will focus on the analysis of the specificity, differences of Uzbek and Chinese languages, errors in the socio-cultural content found in students' oral speech. Through the Error analysis method, in Chinese language education, an interferential classification was formed based on the identification of typical errors inherent in the linguocultural content found in student oral speech. The main focus was on the fact that the role of interference in the discrepancy between the native language and the language under study is significant.

Key words: Uzbek and Chinese languages, oral speech, error analysis (error analysis) method, errors in socio-cultural content.

АНАЛИЗ ОШИБОК СОЦИОКУЛЬТУРНОГО СОДЕРЖАНИЯ, ОБНАРУЖЕННЫХ В УСТНОЙ РЕЧИ СТУДЕНТОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ КИТАЙСКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация

Данная статья будет посвящена анализу специфики, различий узбекского и китайского языков, ошибок в социокультурном содержании, обнаруживаемых в устной речи студентов. С помощью метода анализа ошибок в обучении китайскому языку была сформирована интерференционная классификация, основанная на выявлении типичных ошибок, присущих лингвокультурному содержанию, встречающемуся в устной речи учащихся. Основной акцент был сделан на том факте, что роль интерференции в расхождении между родным языком и изучаемым языком значительна.

Ключевые слова: узбекский и китайский языки, устная речь, метод анализа ошибок (error analysis), ошибки в социокультурном содержании.

Kirish. "Xato qilish" inson faoliyatining turli sohalariga, ya'ni amaliy, mehnat faoliyati, nazariy, anglash jaryonlariga taalluqlidir. Xatolarni tahlil qilish usulidan chet tilini o'rganish jarayoni haqida ma'lumot olish uchun foydalaniladi. Metodikada xatolarni tahlil qilish (error analysis) metodiga qiziqishning qaytadan paydo bo'layotganini kuzatish mumkin [8, 14, 15]. Mazkur metod o'quv jarayonini boshqarish va samaradorligini oshirishning muvaffaqiyatli usuli bo'lib, tizimli, ko'p uchraydigan, takrorlanadigan tipik xatolarni o'rganishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi zamon xitoy tilini o'rganish metodikasida bir vaqtning o'zida ham tilni, ham tili o'rganilayotgan mamlakat ijtimoiy-madaniy hayotiga oid bilimlarni o'rganishni taqozo etadi. Agar milliy muhit bo'lmasa, talabalar uchun til sohibi bilan to'liq muloqot qila olish darajasiga erishish juda qiyin. Ijtimoiy-madaniy layoqat tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: "tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy-madaniy jihatdan o'ziga xos tomonlari, shu tilda so'zlashuvchi millat vakillarining ijtimoiy va nutqiy muloqot madaniyati hamda ularning nutqiy muloqot jarayonida o'z milliy urf-odatlarini, muloqot odobi, muomala madaniyati me'yorlariga rioya qilgan holda zaruriy bilimlardan foydalana olishlari, ijtimoiy sharoitlar va shu til egalari xos stereotip muomala madaniyatidan xabardorligi haqidagi bilimlarning yig'indisidir. Ijtimoiy-madaniy layoqat muloqotga kirisha olish layoqatining asosiy jihatlardan biri hisoblanadi" [1; 287-b.]. A.N.Shukinning ta'kidlashicha, ijtimoiy-madaniy layoqatning yo'qligi yoki uning yetarlicha shakllanmaganligi xatolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri sanaladi, boshqa tilda muloqot qilishning buzilishiga olib keladi [11]. A.V.Guseva o'z izlanishlarida ijtimoiy-madaniy tushunchalarga doir xatolar mamlakatshunoslik, ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-madaniy sohalarga doir bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [3].

Xitoylik tadqiqotchilar ijtimoiy-madaniy layoqatni madaniy layoqat tarkibiga kiritadilar. Shuningdek, madaniy layoqat tarkibiga xorijiy va mahalliy lingvodidaktikada analogi bo'lmagan xalqaro dunyoqarash ko'nikmasini yangilik tariqasida qabul qiladilar. Xalqaro dunyoqarash tushunchasi globalashuv va multikulturalizm hodisalarini tushunish, turli mamlakatlar zamonaviy holati, tarixi, an'analarni bilish hamda tanqidiy fikrlash, turli yondashuvlarga ko'ra tushuntira olish ko'nikmalari, shuningdek, o'zini dunyo fuqarosi sifatida anglashni bildiradi [6]. Xitoy tili ta'limi jarayonida talabalarda xitoycha lisoniy madaniyat shakllanadi. O'z navbatida mazkur jarayonda turli madaniyatlar tutashuvi sodir bo'lib, bu ikki til madaniyatining tafovuti bilan birga talabani ichki madaniyatining o'ziga xos tomonlariga ham bog'liq bo'ladi. Madaniyatlararo tafovut, o'zga madaniyat muloqotiga xos bilimlarga ega bo'lish davlatlar o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish, xalqaro tijoriy muzokaralar olib borish va til sohibi bilan muloqot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar og'zaki nutqida ijtimoiy-madaniy interferentsiya natijasida ro'y beradigan tipik xatolarning kelib chiqish omillarini ko'rib chiqamiz.

Xitoyliklarning kognitiv anglash borasidagi o'ziga xos stereotiplarni bilmasliklari natijasida kelib chiqadigan va tilda aks etadigan xatolar. Xatolarning ushbu turi yetarlicha bo'lmagan so'z boyligi darajasi va bu xitoy hamda o'zbek xalqlari milliy madaniyati milliy ongidagi turli xil assosiativ qatorlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Bunga o'xshash xatolardan biri, masalan,

insonga tavsif berayotganda uni turli xil jonzotlarga va qushlarga o'xshatish (zoomorfizmlar asosida insonga tavsif berish). Xitoy tilida it so'zi xoin, tilanchi yoki yuzsiz kabi salbiy ma'nolarni anglatga, ajdar xitoy xalqining ajdodi, farovonlik va ezigulik ramzidir. Bu borada o'xshash tomonlarni aytib o'tish zarur. Masalan, bo'ri, tulki kabi so'zlar o'zbeklar va xitoyliklarning madaniy an'analarida insonlarga nisbatan ko'proq qo'llanadi. Shunisi e'tiborliki, bu obrazlarning ba'zilar ikki xalq madaniyatida ekvivalent ko'rinishlarga ega. Masalan, tulki ayyorlik va mug'ombirlik ramzi hisoblansa, laylak–baxt va tinchlik ramzi [5; 182-b.]. Xitoy tilida tulki, shuningdek, erkaklarga nisbatan qo'llanganda, ijobiy ma'noda keladi, masalan, 狐男 (hú nán) erkak tulki so'zi ko'rkam va o'ziga e'tiborli erkakka nisbatan qo'llaniladi.

Xitoy xalqining o'ziga xos an'analari, aqidalaridan xabardor bo'lmaslik bilan bog'liq xatolar. O'zbek madaniyatida mavjud bo'lmagan tushunchalar, masalan, 红包 *hóngbāo* – qizil hamyon tushunchasi xitoy an'anaviy minnatdorchiilik ramzi bo'lib, ichiga imkoniyatdan kelib chiqib pul solinadi. Qizil hamyon nafaqat insonga berilgan sovg'a, balki u vakillik qilayotgan an'ana yoki ta'limotga berilgan e'tirof hisoblanadi. Qizil hamyon o'quv qurollari do'konlarida sotiladi. [7; 39-b.].

Nutqiy madaniyat va muloqot etiketini bilmaslik bilan bog'liq xatolar. Bunday xatolar turiga etiket qoidalari, muloqot madaniyati qoidalari buzish bilan bog'liq xatolarga yo'l qo'yishlarni kiritish mumkin. Bu kabi xatolar har ikkala hamjamiyatdagi muomala vaziyatlarida modellarning bir-biriga muvofiq kelmasligi natijasida yuzaga keladi. Bunday vaziyatlarda talabalar o'zbek madaniyatida qabul qilingan murojaat etish, xushmuomalalik, minnatdorchiilik bildirish, hurmat qilish bilan bog'liq bo'lgan fikr ifodalarini xitoy tiliga ko'chirishga harakat qiladilar.

Tahlil va natijalar. Nutqiy etiket – til sistemasining shunday qismiki, bunda jamiyat va shaxsiy hayot uchun zarur bo'lgan rasm-rusumlarni bajarish uchun muomala madaniyati verbal holatda xizmat qiladi. Nutq etiketi birliklari nutqiy ko'nikmalar darajasida amalga oshiriladi, bunda nutq tegishli vaziyatlarda tayyor jumlar ko'rinishida bir necha marta yuzaga keladi. Masalan, “Salomlashish”, “Xayrlashish”, “Uzr so'rash”, “Minnatdorchiilik bildirish” va boshqalar [12-b.].

Salomlashish. Murojaat etish. Salomlashish yordamida muloqotni boshlayotgan ishtirokchilar o'rtasida aloqa o'rnatiladi, insonlar o'rtasidagi munosabatlar ifodalanadi. Xitoy jamiyatida stilistik jihatdan neytral hisoblangan va salomlashishga doir keng tarqalgan etiket jumalari qabul qilingan: “Salom, o'qituvchi Van!”; rahbarga murojaat etishda uning qo'l ostida bo'lganlar yoshi va jinsidan qat'iy nazar quyidagi formula asosida murojaat etadilar: familiya + lavozim, familiya + rang, familiya + ilmiy unvon (faqat oliy), familiya + ism + ilmiy unvon (faqat oliy), familiya + ism + harbiy unvon va boshqalar. Masalan, direktor Lyu, professor Ma, doktor Li. Keyingi yillarda Xitoyda yoshlarga nisbatan quyidagicha murojaat etadilar: 美女 měi nǚ – go'zal qiz, 帅哥 shuài gē – kelishgan yigit. Xitoyliklar tanishlari bilan ko'chada salomlashayotganlarida, odatga ko'ra, shunday savol beradilar: “Sen qayerga shoshyapsan?”, “Tushlik qildingmi?”, “Sen qayerda bo'lding?” va hokazo. Bu salomlashuv savollari hech qanday ahamiyatga ega emas, ular e'tibor belgisi hisoblanadi. O'qish jarayonidagi vaziyatlarda o'qituvchi birinchi darslardayoq auditoriyani xitoycha nutq etiketi bilan tanishtirishi lozim.

Uzr so'rash bilan bog'liq bo'lgan jumlar xitoy tilida ancha keng tarqalgan bo'lib, o'zbek tilidagiga nisbatan ko'proq his-hayajon bilan ifodalanadi. Bu esa xitoy falsafasidagi “Yuz haqidagi bilimlar” asosida bo'lib, uning bosh tamoyili “yuzni yuqotmaslik” degan tushunchani targ'ib qiladi [10]. Agar xitoylik qo'li bilan bexosdan boshqa birovga tegib ketsa, boshqa bironi bezovta qilgani uchun u albatta bir necha bor uzr so'raydi. Xitoyliklar uncha ahamiyatga ega bo'lmagan harakatlari uchun ham notanish kishilardan uzr so'raydilar. Do'stlari va qarindoshlari oldida esa qisqagina uzr so'raydilar. O'zbek madaniyatida do'stlari va qarindoshlari oldida qoidaga ko'ra albatta uzr so'raladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, agar muloqot ishtirokchilaridan biri aksirib yuborsa, o'zbek suhbatdosh xushmuomalalik bilan “Sog' bo'ling!” deb aytadi. Yuqorida eslatib o'tilgan vaziyatda xitoy madaniyatidagi nutq etiketiga ko'ra aksirgan kishi xushmuomalalik bilan “Kechiring” deb uzr so'raydi, chunki xitoy madaniyatida aksirish suhbatga xalaqit berish hisoblanadi.

Minnatdorchiilik bildirish. Xitoy tilida minnatdorchiilik bildirish uchun hissiy bo'yoqdor so'zlardan juda kam foydalaniladi, chunki xitoyliklar tabiatan og'ir, vazmin bo'ladilar, ular o'zlarining yoqimli his-tuyg'ularini kam ifodalaydilar.

O'rta yoshli odamlar o'z minnatdorchiiliklarini bildirishda his-hayajonlarini ifodalashni istamaydilar, chunki suhbatdoshi u haqda so'zlovchi – jiddiy bo'lmagan inson ekan, degan fikrga borishidan ehtiyot bo'ladilar. O'zbek madaniyatida o'z minnatdorchiiligini bildirish uchun “Baraka toping, rahmat”, “Otangizga rahmat” kabi hissiy bo'yoqdor so'zlardan yetarlicha foydalanishga harakat qilinadi.

Taklif qilish. Xitoyliklar kundalik turmush tarzida uchrashish uchun aniq vaqtni belgilamaydilar, chunki uchrashuv gacha kutilmagan ishlar chiqib qolishi mumkinligini hisobga oladilar. Mana shuning uchun xitoyliklar bir-birlariga “Biz senikiga peshingacha borishimiz mumkin”, “Darsdan so'ng boramiz” va boshqa jumalarni aytishlari mumkin. Shunga qaramasdan, xitoyliklar ham jiddiy hisoblangan rasmiy uchrashuvlar oldidan aniq vaqtni belgilaydilar. Xitoylik tilshunos Gu Yuyegoning fikricha, xitoyliklar muloqotida taklif qilish jarayonida qiziqarli “yolg'on” takliflar ham bor. “Yolg'on” taklif o'z ma'nosiga ko'ra aniq taklifdan ajralib turadi. Bunday taklif orqali suhbatdoshda yaxshi taassurot qoldirishga harakat qiladilar, bu takliflar keyingi munosabatlarda aloqalarni davom ettirishni nazarda tutmaydi [13; 46-b.]. Xitoy tilida bunday vaziyatlarda murojaat etilayotgan kishi oldida taklif qiluvchi o'ziga hech qanday majburiyatni olmaydi. Bu o'zbek madaniyatidagi mulozamat va manzirat qilishga o'xshab ketadi. Asli arabcha bo'lgan mulozamat, manzirat so'zlari o'zbeklar nutqida kishining ko'nglini olish uchun ko'rsatiladigan iltifot, izzat-ikrom, takalluf ma'nosida qo'llaniladi. O'zbek interetnik kommunikatsiyasida “Qo'qon manzirat” va “Samarqand manzirat” kabi jumlar mavjud [2; 47-b.].

Xayrlashish. Xitoy tilida xayrlashishning og'zaki shakllari “您慢走啊!” (*Nín màn zǒu a!*) va “您走好!” (*Nín zǒu hǎo!*) mavjud. Bu shakllar o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda “Siz sekinroq keting!” va “Yaxshi boring!” ma'nosini beradi.

O'zbek tilidagi “Oq yo'li!” jumlasining ma'nosi xitoy tilidagi ifodaga juda yaqin. Lekin “Oq yo'li!” jumlasini o'zbek tilida uzoqroq safar oldidan aytiladi, xitoycha “您慢走啊!” (*Nín màn zǒu a!*) jumlasini esa har qanday vaziyatdagi xayrlashuv vaqtida aytilishi mumkin. Xayrlashish jarayonida xitoylar va o'zbeklarning muomala madaniyatida farqli jihatlardan birga o'xshashliklar ham bor. Xitoylar o'zbeklar kabi uchrashuv so'ngida suhbatdoshiga ko'proq e'tibor qaratishga harakat qiladilar. Masalan, o'zingni ehtiyot qil, o'zingga qara.

Yuqorida qayd qilingan xatolarning hech qaysi biri to'g'rilanmay qolmasligi kerak. Talaffuzdagi, grammatik shakllar va so'zlarni qo'llashdagi, stilistik jihatdan mos so'zlarni tanlash kabi faol turlardagi xatolar o'qituvchi tomonidan alohida tushuntirishlar berib to'g'rilanishi lozim.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, xitoy tilida og'zaki nutqni rivojlantirish jarayonida kommunikativ va qiyosiy yondashuvga asoslangan holda madaniyatlararo muloqotning o'ziga xos xususiyatlariga alohida ahamiyat berish,

o'zbek va xitoy madaniyatining farqli va o'xshash tomonlarini tushuntirish orqali talabalarning xitoycha madaniyatni yaxshi tushunishlari va madaniyatlararo muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatli vaziyatlarning oldini olishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Азимов Е.Г., Шукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: ИКАР, 2009. – 448 с.
2. Бобожонов Ф. Нутқ маданияти асослари. – Нукус, 2007. – 58 б.
3. Гусева А.В. Формирование социокультурной компетенций в процессе обучения устному иноязычному общению (школа с углубленным изучением иностранных языков): Дис. ... канд. пед. наук. – М.: 2002. – 235 с.
4. Демина Н.А. Методика преподавания практического китайского языка. Изд. 2-е. монография – М.: Восточная литература, 2006. – 110 с.
5. Дун Фу Хуа. Факторы культуры языка в процессе обучения китайскому языку // Ўзбекистон – Хитой тарихий-маданий, илмий ва иктисодий алоқалар ривож. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Т.: 2018. – 182 с.
6. Единая программа обучения китайскому языку как иностранному. Пекин: Пекинский лингвистический университет, 2014. – 222 с.
7. Маслов А.А. Наблюдая за китайцами. Скрытые правила поведения. – М.: РИПОЛ классик, 2010. – 109 с.
8. Малышев Г.И., Киселевич Я.Е., Митчелл П.Дж. Трудности в изучении фонетики китайского языка русскоговорящими студентами // **Вестник Тамбовского университета**. 2018. – С. 43.
9. Пассов Е.И. Концепция коммуникативного иноязычного образования (теория и её реализация). Методическое пособие для русистов. – Санкт-Петербург: Златоуст, 2007. – 200 с.
10. Сторожук А.Г. Три учения и культура Китая: конфуцианство, буддизм и даосизм в художественном творчестве эпохи Тан.–М.: 2010. –552 с.
11. Шукин А.Н. Методика обучения речевому общению на иностранном языке. Учебн. пособие. – М.; ИКАР, 2011. – 454 с.
12. Юй Цзяминь. Обучение русскому речевому этикету китайских учащихся: Дис. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2016. – 160 с.
13. Gu Yuego. Politeness, pragmatics and culture – // *Foreign languages*, 1992. P. 46.
14. Keiko Mochizuki., Hiroshi Sano., Ya-Ming Shen and Chia-Hou Wu. Cross-Linguistic Error Types of Misused Chinese Based on Learners' Corpora // – *Computational Linguistics and Chinese Language Processing*, 2015. – Vol.20. №1. – P. 97–114.
15. Pengpeng Wang., Xuede Zhao. Error Analysis and Teaching Strategies in Acquisition of chinese Synonyms by Foreign Students // *Advances in Education*, 2020, №10 (1). – P.76 – 83.